

# TOSHKENT HAQIQATI

HAQSEVAR ONA YURT, MANGU BO'L OBOD!

@haqiqatonline\_24

Haqiqat online

haqiqatonline\_

Viloyat  
ijtimoiy-siyosiy  
gazetasi

1928-yil 11-dekabrda  
asos solingan

2025-yil 26-aprel / SHANBA / № 28 (13789)

## ▼ Пресс-тур

Томорқаси борнинг хазинаси борлиги рост. Бунинг билан бугун ер билан тиллашиб, мўмай даромад олишмоқда. Айниқса, ишнинг кўзини билладиган Ўрта чирчиқликлар бу борада анчайин фаол.

Куни кеча ушбу ҳудудда томорқа ерларидан унумли фойдаланиш бўйича қилинган ишлар билан яқиндан танишиш мақсадида ОАВ вакиллари учун пресс-тур ташкил этилди.



## Ердан унаётган “Миллионлар”

Дастлабки манзил Ўрта Чирчиқ туманидаги “Янги турмуш” маҳалласида жойлашган “Agro servis orzu” МЧЖ бўлди. Бу ерда тадбиркор Ибратилла Рихситиллаев 800 минг АҚШ доллари эвазига хориж технологияси асосида 12 гектар майдонда замонавий иссиқхона барпо қилиб, кулпуннай етиштирган. Бугун экин майдони кулпуннайга бурканган.

3



Муҳаммад Юсуф  
деган безавол  
шеъринат  
бор...

4

▼ San'at

## Suratlarda yashirin sirlar



Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili munosabati bilan mamlakatimizda turli jabhalarda amalga oshirilayotgan tashabbuslarda madaniyat va san'at sohasi vakillari ham faol ishtirok etmoqda. Shunday ijodiy tashabbuslardan biri Chirchiq shahrida o'tkazilgan tasviriy va amaliy san'at festivalida namoyon bo'ldi.

(Давоми 4-саҳифада) ►

## Сайловга тайёرمىсиз, маҳалладошлар?



Нуратшон шахрида Фуқаролар йиғинлари раислари сайловларига тайёргарлик кўриш ва ўтказиш билан боғлиқ жараёнлар ҳақида маълумот бериш мақсадида журналист ва блогерлар учун матбуот анжумани ташкил этилди. Унда комиссия раиси Сайёра Файзиева ҳамда Ўзбекистон маҳаллалар уюшмаси вилоят бошқармаси бошлиғи, комиссия раиси ўринбосари Фуқрат Худойбердиев сўзга чиқиб, тайёргарлик жараёнлари ҳақида маълумот беришди.

да ёритиш бўйича медиа-режа ишлаб чиқилди. Вилоят ҳамда туман-шаҳар Кенгашларининг қарори билан маҳалла раислари сайловини ташкил этиш ва ўтказишга кўмаклашувчи комиссиялар тузилган бўлиб, вилоят комиссияси 21 нафар, туман ва шаҳарлар комиссиялари эса жами 396 нафар аъзодан иборат. Жорий йилнинг февраль-март ойларида Адлия вазирлиги билан ҳамкорликда комиссиялар ва ишчи гуруҳ аъзолари ўқитилди. Улар фаолиятини самарали ташкил қилиш мақсадида “Маҳалла раиси сайловини ташкил этиш ва ўтказиш бўйича” услубий тавсия, “Маҳалла сайловида оид 100 саволга 100 жавоб” ва “Маҳалла раиси сайловида оид норматив-ҳужжатлар тўплами” услубий қўлланмалари ҳамда “Ишчи гуруҳлари учун эслатма” ишлаб чиқилиб, ҳудудларга етказилди. Айни кунларда ишчи гуруҳ аъзолари жойларга чиқиб, аҳоли билан учрашмоқда.

Таъкидлаш лозимки, 22 та туман (шаҳар) кўмаклашувчи комиссияларнинг қарори билан сайловда маҳал-



– Бугунги кунда 1 минг 25 та маҳаллада сайловга қизгин тайёргарлик амалга оширилмоқда, – дейди Ф. Худойбердиев. – Хусусан, битта ҳудудда (вилоятда) ҳамда 22 та туман ва шаҳарларда маҳалла раислари сайловини ташкил этиш ва ўтказишга кўмаклашувчи комиссиялари қошида Штаблар фаолияти йўлга қўйилди. Шунингдек, сайловни ташкил этиш ва ўтказиш жараёнларини оммавий ахборот воситалари-

ларда 246 минг 433 нафар вакиллар иштирок этиши белгиланди. Маълумот учун, 1 май куни вилоятимиздаги дастлабки 22 та маҳаллада сайлов жараёнлари бўлиб ўтади. Анжуманда иштирокчилар ўзларини қизиқтирган саволларга комиссия аъзоларидан жавоб олишди.

Нигора ЎРОЛОВА,  
“Тошкент ҳақиқати” муҳбири  
Жалолитдин ЭСОНОВ  
олган суратлар

## “У КУНЛАРНИ ЭСЛАМОҚ ОФИР...”



2

## Viloyat bo'ylab

VILOYATda tadbi-  
korlik qilish ista-  
gini bildirgan yoshlarga  
“Biznesga birinchi qadam”  
loyihasiga muvofiq, 14 nafar  
yigit-qizga 1,6 milliard so'mlik  
imtiyozli kredit mablag'leri be-  
rildi.



VILOYATda alohida ta'limga ehti-  
yoji bo'lgan bolalarni qisqa mud-  
datga (4 soatgacha) parvarishlash,  
ta'lim-tarbiya berish hamda ularni  
jamiyatga moslashishga ko'mak-  
lashish maqsadida «G'amxo'rlik»  
guruhlari tashkil etilmoqda. Bun-  
da bolalarning ta'lim olishi bepul  
amalga oshiriladi.



CHIRCHIQ shahrida-  
gi “Umid” mahallasining  
Xalq birligi, Bo'ston ham-  
da Chexov ko'chalarida  
ichki yo'llar holatini yax-  
shilash, ayrim ijtimoiy va  
boshqa soha obyektlarini  
rekonstruksiya qilish ish-  
lari amalga oshirilmoqda.



YUQORI CHIRCHIQ tu-  
manida aholiga qulaylik  
yaratish va fuqarolarda eko-  
madaniyatni rivojlantirish  
maqsadida hudud markazlari,  
aholi gavjum joylarda 1,5 km.  
masofada piyodalar yo'laklari  
qurildi. Atrofi ishkomb qilinib,  
uzum va bir necha turdagi gul  
ko'chatlari ekildi.



O'RTA CHIRCHIQ tumani  
sektor rahbarlari yoshlar bi-  
lan uchrashdi. Muloqot davo-  
mida bir guruh yoshlarning  
murojaat va takliflari o'rganilib,  
muammolariga yechim topildi.  
“Yoshlar daftari”ga kiritil-  
ganlarga tikuv mashinalari,  
kompyuter jamlanmalari top-  
shirildi.



YANGIYO'L shahrida yosh-  
larning tadbirkorlikka bo'lgan  
qiziqishlarini yanada oshirish  
maqsadida tumandagi ishlab  
chiqarish korxonalariga sa-  
yohat tashkil etildi. Bitiruvchi  
yoshlar korxonada xodimlar  
uchun yaratilgan sharoitlar, ish-  
lab chiqarish jarayonlari bilan  
yaqindan tanishdilar.



## ▼ Хотира ва кадрлаш куни олдида

Одатда инсонга тилак билдирилганда “умри узоқ, тани соғ, ризқи бутун бўлсин” дейилади. Узоқ умр эса, 100 ёш ораси билан ўлчанади. Шундай улугъ ёшни қаршилаётган инсонларнинг зиёратида бўлиш, уларнинг дуосини олишга ошиқиш ҳам бизнинг одатларимизга хос хислат. Бир асрлик тарихга гувоҳ бўлгани учун ҳам уларнинг ҳикояларини эшитиш жуда мароқли.

Бекобод шаҳрида умргузаронлик қилиб келаётган Ҳасанбой ота ҳам шу йил 100 билан ўзлашди. Ҳаҳрамонимиз билан суҳбатлашиш мақсадида у киши яшаётган манзилга етиб бордик. Отанинг уйи пештоқиға “Бу хонадонда Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси Холматов Ҳасанбой истиқомат қилади” деган лавҳа осийлиқ турарди...

## Ошни дамлагандек, ерни дамлагандим...

— Ота-онам деҳқончилик билан шугулланишарди. Эшакка омон қўшиб ер ҳайдашни бошлаганимда чамаси 10 ёшларда эдим, — дейди Ҳасанбой ота Холматов. — Жуда мароқли машғулот эди. Экин учун ер тайёр, энди уруғни қадасак бўлгани... Аммо отанинг бир синови ҳам бор эдики, ундан ўтиш учун кўпроқ тер тўкишимга тўғри келарди. Тухумдек катталиқдаги тошни қўлига олган отам, уч-тўрт қулоч баландликка отарди. Қайтиб тушган тош ҳайдалган ерга ботмасди. Ерни қайта ҳайдашимни айтарди. Бу ҳол бир неча маротаба такрорлангандан кейингина тош ерга ботарди. Шунда отам “Ошни дамлагандек, ерни дамлабсан” дерди. “Дамланган” ерга экилган оқ жўҳорининг ҳосили жуда ҳам яхши бўларди...

Томорқамизнинг бир қисмини офтоб тигида уч ой қуйди-рардик. Сентябрь ойида эса, қуйдирилган ерга уч баргли сабзи экардик. Ҳозиргидек қизил ва сариқ эмас, у вақтларда оқ сабзи экиларди. Қичкина жойдан ҳам тонналаб ҳосил олинарди. Ноябрь ойининг охирида қишлоқдаги таътилни киракаш йигитлар туяларда ке-

## “У КУНЛАРНИ ЭСЛАМОҚ ОҒИР...”

## Ватан равнақи, тинчлиги ва ҳимояси йўлидаги қаҳрамонлик унутилмайди

либ, етиштирган ҳосилимизни Андижондан Марғилонга етказиб беришарди. Мен ҳам ўша пайтларда отамга эргашиб бозорга борардим.

У даврлар болалиқнинг ширин хотиралари сифатида эсимда қолган. Ҳеч қачон унутмайман. Айниқса, онамнинг биз учун пиширган таомлари, отамнинг бизга берган ўғитларини доим кумсайман. Уларнинг гашти бошқача эди...

## Фронтга йўл

— Ёшим 18 га етганида мени ҳам армия сафига чақиртиришди. Қисқа муддатли тайёргарликдан кейин, 1943 йилнинг декабрь ойи-

да бизни фронт чизигига олиб кетаётган эшелонга душман самолётлари томонидан ҳужум уюштирилди. Кимдир томонга яширинган, кимдир сўл томонга. Биз кўпчилик бўлиб ёнимиздаги ўрмон томон югурдик. Барча миллат ва давлатдан урушга сафарбар қилинган норгул йигитлар ўз тилларида “она” дея бақирганча югурарди. Уруш биз учун шу тариха бошланганди...

Фронтда танка қарши тўпларга снаряд етказувчи вазифасида бўлдим. Битта тўпни ўқлаш, мўлжалга олиш ва отиш вазифасини 5 киши бажарардик. Мен жамоани 5-азваси эдим. Хавфсизлик нуқтаи назаридан 150-200 метрча

чамаси узоқликда жойлаштирилган снарядларнинг оғирлиги 15 килограмми ташкил қилар, битта қутида 3 дона тўп ўқи бўлиб, унинг оғирлиги 45 килограмм эди. Икки қўлим билан иккита қутини тортиб, орқа курагимда эса яна битта қутини опичлаб келаман. Умумий ҳисобда 135 килограмм вазндаги юкни тўпга етказиб бераман. Вазифамиз оғир, асло тиним йўқ эди. Тўхтаб қолишнинг оқибати ёмон бўлишини барчамиз яхши билар эдик.

Бир сафар, снарядлар жойлашган жойга борганимда тўп устига душман ўқи келиб тушди.

борлигидан хурсанд бўлдим. Яна бир бора ўша кунларни хотирлагандик...

## Уйга қайтиш

— Уруш тугаб бўлишига қарамасдан, бизни 1950 йил уйимизга қайтаришган. Ўшанда олам мен учун бир қизни кўз остига олиб юрган экан. Қайтишим билан тўй қилиб, ўша қизга уйлانганман. 26 ёшга тўлганимда катта ўғлим дунёга келган. Бирин-кетин 9 фарзандли бўлдик. Иккисининг

Негаки, умр барибир ўтар экан. Уни тўхтатишнинг имкони йўқ. Аммо, ёшинг ўтиб, виждонинг олдида ҳисоб бераётганимда кўнгил оғрийдиган амалларни қилмаганинг хотиржамлик бағишлар экан. Ҳаловат топар экансан.

Бир умр ойликка қараб яшадим. Оилам шунга қаноат қилди. Раҳбарлик лавозимларида ишлаганимда ҳам уни суиистеъмол қилмадим. Энг асосийси ўзимга хиёнат қилмадим...

## Ўзбек офицерлари

Бекобод шаҳарчасининг ўзида Иккинчи жаҳон уруши қатнашчилари 600 дан ортиқ эди. Бугун эса 2 нафар қолибмиз. “Уч авлод учрашув”, “Очиқ эшиқлар куни” ва ҳарбийлар билан турли учрашувлар чоғида ҳарбий қисмларга борамиз. Бугунги кун шароитларини кўриб, тўғриси, кўзимга ёш келади. Бу кунларга етганлар бор, етмаганлар бор... Дориламон кунларнинг қадрига етиш, тинчликни қадрлаш керак.

Учрашувларда ёшлар уруш ҳақида кўпроқ гапиришимизни сўрашади. Аммо у кунларни кўриш у ёқда турсин, эслашнинг ўзи инсонни руҳан азоблайди. Шунинг учун ўсиб келаётган болаларимизга доим таъкидлайманки, урушнинг номи ўчсин, ҳеч қачон уруш бўлмасин. Жанг майдонида ўтган ҳар дақиқанинг ўтиши шунчалар қийинки, бир сониядан кейин нима бўлишини айтиш қийин. Топишдан кўра, йўқотишлар кўп бўлган. Янги кийим киймадик, қорнимиз тўйиб овқат емадик...

Бугунги кунларнинг шукронасини қилиш керак. Фақат яхши яшаш, ўқиш ва интилиш лозим. Бугунги ёшларга яратилган имкониятлар бизда бўлган эмас. Ҳатто, тасаввур ҳам қилолмаганимиз. Шу Ватанимни севиш, уни кўз қорачигидай асраш керак.

Шерзод ШАРИПОВ  
ЎЗА



Жамоадан битта мен тирик қолдим... У кунларни эсласам, ўпкам тўлиб кетади.

Ғалабани Берлинда кутиб олдик. Ҳамма хурсанд. Шунда кўпчилик жангчилар деворга исми ва манзилни ёзаётганига кўзим тушди. Мен ҳам ёзмоқчи бўлдим, аммо бўш жой қолмаган эди. Шунда қуролдош дўстимизнинг елкасига чиқиб, тепароқдан бўш жой топдимда исимим, манзилим ва миллатимни ёздим. Орадан йиллар ўтиб, 1972 йил Берлинга борганимизда ёзганимнинг ярми ўчиб кетганини, аммо “Ҳасанбой, Андижон” деган жумлалар ҳали ҳам деворнинг тепа қисмида

умри қисқа экан, пешонамизга сиғмади. Қолганларининг барчасини уйли-жойли қилдик. Урушдан кейинги ҳаётим ва фаолиятимни Бекобод шаҳрида ўтказдим. Бу орада металл, гишт заводлари ва Сирдарё ГРЭСда ишладим.

## Ўзимга хиёнат қилмадим

Ортада қолган умримга қараб туриб шуни англадимки, ҳар қандай ҳолатда ҳам ҳалол ва покликка интилиш керак экан.

## ▼ Яхши хабар

## ЎЗБЕКИСТОНДА РЕНИЙ МЕТАЛНИ САНОАТ УСУЛИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛДИ

Бу ҳақда Олмалик кон-металлургия комбинати Ахборот хизмати хабар берди.

Олмалик кон-металлургия комбинати олим ва мутахассисларининг кўп йиллик илмий-тадқиқот ишлари самараси ўлароқ, 2021 йилда 99,9 фоиз софликдаги рений метали олишга эришилган эди. Бу юксак натижа пернат аммонийни водород тиклаш усули орқали қайта ишлаш билан амалга оширилди.



технологик металл комбинатида рений ишлаб чиқариш бўйича махсус участка ташкил этилган бўлиб, у Германиянинг замонавий технологик ускуналари билан жиҳозланган.

Рений хом ашёси Мис эритиш заводи ҳамда маҳаллий саноат корхоналаридан етказиб берилади. Комбинат томонидан йиллик ишлаб чиқариш ҳажми 3 тоннага ташкил этилади.

Рений – Менделеевнинг даврий жадвалида 75-ўринда жойлашган, энг зич ва қаттиқ металллардан бири ҳисобланади. У нефтни қайта ишлашда, авиасозлик ва электротехника соҳаларида юқори аниқликдаги деталлар, ядро саноатида термоларлар, тиббиётда илмий-тадқиқот ускуналари ва зарғарликда қопламалар тайёрлашда кенг қўлланилади.

Жаҳон бозорида ренийга бўлган талаб юқори бўлиб, унинг 1 килоси ўртача 2000 АҚШ доллари атрофида баҳоланади.

Илмий салоҳият ва замонавий ишлаб чиқариш технологиялари уйғунлигида амалга оширилаётган ушбу лойиҳа мамлакатимизда юқори қўшилган қийматга эга маҳсулотлар ишлаб чиқариш салоҳиятини янада оширишга хизмат қилади.



## ▼ Ko'zgudagi o'zimiz

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga ham 35 yildan oshdi. Shu o'tgan davr ichida davlat tili rivoji yo'lida salmoqli ishlar, amaliy o'zgarishlar qilindi. Sohalar qamrovini oladigan bo'lsak, oddiy so'zlashuvdan tortib xat-hujjat ishlarida ham o'zbek tiliga bo'lgan hurmat kuchaydi. Birgina tibbiyot yo'nalishini olaylik. Bu sohada dastlab, o'zbek tilida ish yuritish joriy etildi. Davlat muassasalarida tibbiy qog'ozlarni yuritish, bemorlar bilan muloqot qilish va xizmat ko'rsatish ja-

rayonlarida o'zbek tili asosiy o'ringa olib chiqildi. Ayniqsa, sog'liqni saqlashga oid ayrim terminlar ona tilimizga tarjima qilindi. Tibbiy adabiyotlar – ilmiy-tadqiqot ishlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar va jurnallar o'zbek tilida chop etila boshlandi. Eng muhimi, elektron tibbiy kartotekalar, diagnostika dasturlari va axborot tizimlarining ham sof o'zbekchasi yaratildi. Bularning bari tibbiyot sohasida davlat tili mavqeini oshirishga bo'lgan sa'y-harakatlar deyish mumkin.

## TIBBIYOTDA tilimiz «bemor»

Biroq, shunga qaramay viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasiga qarashli tibbiyot muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosi tahlil qilinganda, til me'yorlarining buzilganiga guvoh bo'ldik. O'tkazilgan o'rganishlarda ba'zi tibbiyot maskanlarida xat va hujjatlarni yuritish, kasallik varaqalarini to'ldirish, umuman boshqa yozuv-chizuv ishlarida hali-hamon savodsizlikka yo'l qo'yilayotgani, imloviy xatolarning ko'pligi ma'lum bo'ldi.

Viloyatimizning ayrim shifoxonalardagi holatlarga to'xtalar ekanmiz, bajarilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda, o'xshash kamchiliklarga yo'l qo'yilgani ham aniqlandi. Jumladan, nazorat tartibida o'rganilgan tibbiyot muassasalarining deyarli barchasida binolar, xonalardagi peshlavhalar, reklama, e'lon mazmunidagi matnli bannerlar kirilil va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida aralash yozilgani, me'yoriy hujjatlar yuritilishida imlo xatolariga yo'l qo'yilgani, ish hujjatlarini yuritishga mas'ul bo'lgan xodimlar ham o'zbek lotin alifbosida ish yuritish malakasiga to'liq ega emasligi, xodimlarni davlat tilida ish yuritish bo'yicha malaka oshirish-

larini tashkillashtirish ishlari deyarli bajarilmagani aniqlandi.

Hattoki, ba'zi markazlarning ma'muriy binosi peshtoqida, xizmat xonalarining tanishuv lavhalarida aks etgan yozuvlar davlat tili va lotin yozuviga asoslangan o'zbek hamda kiril alifbosida aralash holda, imloviy xatolar bilan yozilgan. Hujjatlarini yuritishda ham jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Ichki buyruqlarda esa, sanalarini yozish tartiblari buzilgan. Shuningdek, barcha rasmiy blankalar, tegishli muhrlarda ham imloviy xatolarni ko'rish mumkin. Ayrim hujjatlarda hatto, sanalar quyidagi etilmagan holatlarga ham guvoh bo'ldik. Ayniqsa, devoriy yozuvlarda imloviy xatolar, oddiygina tutuq belgisi va qo'shtirmoqning noto'g'ri qo'llanganini ko'rib, afsuslanasiz.

Masalan, “gipertoniya” so'zi o'rninga, “gipirtoniya” deb, bradikardiya bilan taxikardiya adashtirib yozilish holatlariga duch keldik. Qolaversa, jumla tuzishda imlo qoidalariga umuman rioya qilinmasligi, ruscha terminlarni noto'g'ri tarjima qilish holatlari va hatto nuqta-vergunning qayerga qo'yilishini bilmaslik holatlari ham ko'p uchradi. Bu kabi muammolar sog'liqni saqlash tizimining og'riqli nuqtalaridan hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, kamchiliklar malakali tibbiy xizmat sifatining pasayishiga, bemorlarning



noto'g'ri tashxis yoki davo olishiga va boshqa huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Kasallik tarixini yozishda bemor holatini aniq ifoda etmaslik, ya'ni, aniq joyi, xarakteri ko'rsatilmagan “qorin og'rig'i bor” deb yozish, tashhis va tavsiyalarda ishonchsiz ifoda: “ehtimol”, “balki”, “to'g'ri keladi” kabi so'zlarni ishlatish, tibbiy kartalarda yozuvlarning o'qib bo'lmisligi – tibbiyot sohasida tiling “oqsayotganidan” darak beradi. EKG, UZI, KT, SOE kabi tibbiy qisqartmalarini tushuntirmasdan ishlatish, davolashda

noaniq – “ijobiy rejim saqlash”, “shifokor nazoratida bo'lish” kabi davo yo'nalishlarini tavsiya qilish, rus tilida yozilgan iboralarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish natijasida, ma'nosi to'g'ri kelmaydigan jumla va ifodalarni paydo bo'lishi ham ko'p uchraydigan xatolardan sanaladi.

Til masalasi bo'yicha tibbiyot sohasida uchrayotgan xatolar juda ko'p jihatdan jiddiy hisoblanadi. Bu bemor va shifokor o'rtasida tushunmovchiliklar kelib chiqishiga bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'rganishlar jarayonida ayrim muassasa rahbarlariga o'zlarining kamchiliklarini, qanchadan-qancha xato hujjatlarni jirmijador imzolari bilan tasdiqlaganliklarini ro'y-rost ko'rsatib berdik. Bu ba'zi rahbarlarga yuqoridagi, albatta. Ammo na iloj, ona tilimizning rivoji, umrboqiy bo'lishi uchun kimlarningdir ko'ziga olabo'ji bo'lib ko'rinishiga ham to'g'ri kelarkan-da.

Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan xato va kamchiliklarni to'g'rilash bo'yicha ishchi guruhi a'zolari tomonidan tegishli tavsiya va maslahatlar berildi. Ba'zi kamchiliklar joyida bartaraf etildi. Shuningdek, 2025-yil uchun “O'zbek adabiy tili me'yorlari va davlat tilida ish yuritish” malaka oshirish kursiga 8 nafar tinglovchi ro'y-xati rejasini tasdiqlanib, malaka oshirish kursi may oyida o'tkazilishi rejalashtirildi.

Davlat tilining sofligini asrab-ayitish, adabiy til qoidalariga amal qilish ona tilimiz boqiyilgini ta'minlaydi. Shunday ekan, tashkilot, korxona, muassasa binolaridagi peshlavhalar, o'quv xonalari va jamoat joylarida, tadbirkorlik ob'yektlarida o'rnatilgan reklama va bannerlardagi yozuvlarda til qoidalariga og'ishmay amal qilinishi katta ahamiyatga ega. Bunda yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida bartaraf etish esa, davlat tiliga bo'lgan e'tibor va hurmat namunasidir.

Davlat tiliga oid qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlarining ijrosini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar ko'lami viloyat hokimligi tomonidan nazoratga olingan bo'lib, hokimlik ishchi guruhi tomonidan davlat va nodavlat tashkilotlarda o'rganish ishlari davom etadi.


Shahnoza XO'JAYEVA,  
Toshkent viloyati hokimiyati maslahatchisi

# Ёрдан унаётган “Миллионлар”



— Иссиқхонада қулупнайнинг АҚШдан олиб келинган “Ал-бион”, “Кабрилло”, “Монтеррей” навлари етиштирилади, — дейди тадбиркор. — Бу нав йил давомида 360 кун ҳосил беради. Иссиқхонамизда кунига 1,5 тоннагача қулупнай етиштириш мумкин. Ҳозирда ҳосилни Саудия Арабистони, Россия Федерацияси ва Қозғистонга экспорт қилмоқдамиз. Фаолиятимиз ортидан 50 нафарга яқин аҳолининг бандлиги таъминланган. Йигим-терим мавсумида улар сони янада ортади.

Бугун мева-сабзавот етишти-



ришда ўрта чирчиқликлардан ибрат олса арзийди. Жумладан, Президентимизнинг 2025

(Давоми. Бошланиши 1-саҳифада)

экинлар экилмоқда. Хусусан, “Тинчлик” МФИдаги 30 гектар ер майдони 50 нафар ёшга 30 йилга ижара асосида ажратилган. Ҳозирда ёш деҳқонлар қарам экинни парваришлямоқда.

— Туманимизда ишсизликка барҳам бериляпти, — дейди туман Камбағалликни қисқартириш ва бандлик бўлими бошлиғи Сардор Уталов. — Худуднинг иқлим шароитидан келиб чиқиб, “Брокколи” навли қарам етиштирилган. Ҳозирда ҳар гектарига 40 минг тулдан кўчат экилган. Улардан мавсумда 17 тонна ҳосил олинади. Даланинг ўзида тадбиркорлар ва деҳқонлар ўртасида ҳосилни сотиб олиш бўйича шартно-



лиси эса “Бир маҳалла — бир маҳсулот” тамойили асосида йил бўйи сабзавот етиштириб келади. Ҳозирда 270 та хонадонда иссиқхоналар мавжуд. Ҳоким ёрдамчиси томонидан икки йилдан буён Оилавий тадбиркорлик дастури доирасида иссиқхоначилик йўналиши учун бир миллион сўмга яқин кредит ажратилган. Ҳар бир оилага ўртача 50 миллион сўм қўшимча даромад олиш манбаи яратилган ва 500 га яқин аҳолининг бандлиги таъминланган.

— Маҳалламиз қарамчиликка йўналтирилган, — дейди “Уйғур” МФЙ раиси Воҳид Рамазонов. — Айни пайтда қарамнинг 4 хил нави етиштирилмоқда. Экспортёрлар ўзлари келиб ҳар бир томорқадан ҳосилни олиб кетади. Шу билан бирга, бир килограмм “Брокколи” ички бозорда йигирма минг сўмдан сотилмоқда.

Мухтасар айтганда, ернинг тилини, ишнинг гулини биладиган Ўрта чирчиқлик миришкорлар ерда миллионлар унишни англаб улгуришган. Шунинг учун ҳам йилнинг тўрт фаслида пул санайдилар.

**Нигора ЎРОЛОВА,**  
“Тошкент ҳақиқати”  
муҳбири  
Жалопиддин ЭСОНОВ  
олган суратлар

## ЖАВОННИ ҲАМ, КҮНГИЛНИ ҲАМ ТЎЛДИРГАН ТУҲФА



Айни кунларда юртимизнинг барча ҳудудларида “Ўзбекистон — китобхонлар юрти” шиори остида V Республика “Китобхонлик ҳафталиги” давом этмоқда.

### ▼ Китобхонлик ҳафталиги

Хусусан, Паркент тумани Ахборот-кутубхона маркази томонидан ҳафталик доирасида “Китоб бор жойда — нур бор” шиори остида тадбир ташкил этилди. Унда тумандаги 8-умумтаълим мактаби ўқувчилари билан янги нашрлар бўйича давра суҳбати, 5-ИДУМ билан ҳамкорликда викторина ўйинлари ўтказилди.

— Ўтаётган ҳафталик китоб ихлосмандлари учун таассуротларга бой бўлмоқда, — дейди Ахборот-кутубхона маркази директори Муҳайё Аҳмедова. — Айниқса, болажонлар сеvimли қаҳрамонлари билан бирга саёҳат қилиб, савол-жавоблар ҳамда машғулотлар орқали билим ва тафаккурларини синаб кўришмоқда. Болаларнинг кўзларидаги қизиқиш, табассум ва шижоат бизни яна-

да илҳомлантирди. Бундай учрашувлар фарзандларимизни маърифат ва китобсеварлик руҳида тарбиялашда муҳим ўрин тутди. Айни пайтда кутубхонамизда 50 мингга яқин китоб фонди мавжуд бўлиб, 8 мингга яқин китобхонимиз бор. Ҳар йили ҳафталик давомида китоб совға қилиш анъанаса айланган. Туман фаоллари томонидан туҳфа қилинган китоблар нафақат жавонимизни, балки кўнглимизни ҳам тўлдиради.

Шунингдек, тумандаги қатор таълим муассасалари, қорхона ва ташкилотлар ходимлари учун “Кутубхонага саёҳат” ташаббуси доирасида экскурсиялар ҳам ташкил қилинмоқда.

**Нигора ЭРКИНБОЕВА,**  
Муаллиф олган суратлар



## ▼ Учрашув ТАДБИРКОРЛАР МУАММОЛАРИ ЎРГАНИЛДИ

Тошкент вилояти солиқ бошқармаси раҳбарияти томонидан Бўка туманида кичик ва ўрта бизнес вакилларини қийнаб келаётган муаммоларни ўрганиб, уларга ечим топиш мақсадида тадбиркорлар билан учрашув ташкил этилди.

Унда вилоят солиқ бошқармаси бошлиғи ўринбосари Анвар Зулфонов, Бўка тумани ҳокими Бахтиёр Бегматов ҳамда қатор мутасаддилар иштирок этишди.

Тадбирда кичик ва ўрта бизнес вакиллари ўз фаолиятларини янада ривожлантириш ҳамда кенгайтиришда амалга оширилиши лозим бўлган вазифалар юзасидан фикрлар алмашилди.

Шунингдек, учрашув давомида мутасаддилар томонидан солиқ соҳасидаги сўнги ўзгаришлар, хусусан Президентимизнинг жорий йил 19 мартдаги “Кичик ва ўрта бизнеснинг иқтисодийётидаги ўрнини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонида мувофиқ тадбиркорлик субъектларига берилаётган имкониятлар тўғрисида атрофлича маълумот берилди.

Тадбиркорларнинг солиқ имтиёзларини қўллаш, қўшилган қиймат солиғи ўрнини қоплаш, нотугар объектларга мол-мулк солигини ҳисоблаш, маъмурий ҳуқуқбузарликлар, банк ҳамда кадастр органлари билан боғлиқ муаммо ва тақлифлари тингланб, уларни ижобий ҳал этиш чоралари кўрилди.

Мурожаатларнинг бир нечаси жойида ҳал этилди. Вақт талаб этиладиган масалалар эса тегишли мутасаддиларга бириктирилиб, ижроси назоратга олинди.

Шунингдек, энг намунали, барқарорлик рейтингини юқори ва фаол тадбиркорлар ташаккурнома ва қимматбаҳо совғалар билан тақдирланишди.

Ўз муҳбиримиз

## ▼ Вилоят Кеенгашининг сессиясида Давлатимиз раҳбари томонидан “Ўзбошимчалик билан эгалланган ер участкалари ҳамда уларда қурилган бинолар ва иншоотларга бўлган ҳуқуқларни эътироф этиш тўғрисида”ги Қонун имзоланиб, жамоатчилик эътиборига тақдим этилган эди.

Қонун кучга кирган кундан эътиборан бошқа ҳудудлар каби вилоятимиздаги 1 минг 28 та маҳаллада ҳам режа-жадвал асосида хатлов

нафар мутахассис бўлиб қилинди. — Қонунчиликка мувофиқ, хатлов натижалари бўйича ҳар бир объект тўғрисидаги маълумотлар “Эъти-

## Эгалик ҳуқуқлари эътироф этилди

дан ўтказиш ишлари бошланди. Унга Давлат кадастрлари палатасининг вилоят бошқармаси ҳамда худудий филиалларидан жами 207

роф” электрон ахборот дастурига киритилиши, улар 18 та вазирлик ва идоралар томонидан 2 ой ичида кўриб чиқилиши ҳамда жамоатчи-

ликка эълон қилиниши белгиланган эди, — дейди Давлат кадастрлари палатаси вилоят бошқармаси бошлиғи Жасур Ахоров.

Хусусан, Халқ депутатлари Тошкент вилояти Кеенгашининг навбатдаги сессиясида қўрилган қатор масалалар доирасида оқўргонлик 9 нафар фуқаронинг яқка тартибдаги уй-жойларига ва ер участкаларига нисбатан эгалик ҳуқуқлари эътироф этилди. Кадастр агентлиги вило-

мазкур ҳужжат эгалик ҳуқуқи учун асос бўлиб, келгусида яшаш жойига доимий рўйхатга қўйиш, мерос ва бошқа бир қатор нотариал ҳужжатларни амалга ошириш имконини беради.

Бугун узоқ йиллардан бери уй-жой ҳуқуқини олиш масаласида қийналиб келаётганларнинг қувончи чексиз. — Яшаш хонадонимизни кадастр рақами йўқлиги ҳам бир кемтик эди, — дейди Оқўргон туманидаги “Элтамғали” маҳалласида яшовчи Ғофуржон Мирбобоев. — Шукри, бугун хат-ҳужжатли бўлдик. Бундан қанчалик хурсанд бўлганимизни сўз билан ифода этолмайман.



Айни пайтда мутасаддилар томонидан худудларда хатлов жараёнлари давом этмоқда. Ҳозиргача жами 23 минг 425 та объект хатловдан ўтказилиб, шундан 9 минг 587 та объект маълумотлари “Эътироф” электрон ахборот дастурига киритилган. Шунингдек, 433 та объект жамоатчиликка эълон қилинган.

Ўз муҳбиримиз

## ПЛАГИАТ — МУАЛЛИФГА АЗИЯТ

### ▼ Долзарб мавзу

Ижод ўғриларига кескин чора қўрилиши зарур!

Бу ҳақда гапиравериб, ёзавериб жуда чарчади одам...

Ҳамон ижодкорлар муаллифлик ҳуқуқи масаласида ўзи қурашиши зарур бўлиб қоялпти. Мен ҳам адабий-илмий ижодда плагиат ҳолатига жуда кўп дуч келганман.

Кўпчиликка маълум, бир неча йил аввал (2016 йил) кўчирмачи қаламқаш ва қўшиқчилар билан судлаштишга борганмиз, пировардида улар жавобгарликка тортилган. Ўтган 2022-2023 йиллари ҳам шундай моҳаролар овоза бўлди...

Аслида, интеллектуал мулк ҳимоясига маъсул ташкилотлар ўз ишини қандай бажаряпти?

Ижодкорнинг муттасил шундай ортиқча бошогриқ билан банд бўлиши, ойлаб овораяо сарсон юриши тўғрими? Ўзи ким бу ишлар билан шуғулланиши керак? Қачонгача ижодкорлар саргардонликда, эшикма-эшиқ юриб, ҳуқуқини талаб қилади?

Тегишли идоралар афсуски, ишни пайсалга солишдан, сарсон қилишдан нарига ўтмайди. Шўрлик муаллифнинг югур-югури,

муттасил талаблари билан масала бир нави ҳал бўлганда эса, дарров майдонга чиқиб, ўз номини пеш қилганча шов-шув кўтаришни қойиллатишади...

Мурожаатларимизга муносабатдан сўнг яна амин бўлдикми, Адлия вазирлиги, унинг худудий бошқармалари ва бошқа масъул идораларда муаллифлик ҳуқуқи бўйича малакали мутахассислар етишмайдиган кўринади. Ҳатто судьялар орасида бу масалани тузук-хуруқ тушунмайдиганлари учрайди. Айтман десам, анча гап бор...

Дарвоқе, Ёзувчилар уюшмаси, Маданият вазирлиги, “Ўзбекконцерт” ва бошқа ижодий ташкилотлар ҳам бу масалага жиддийроқ қараши лозим эмасми?!

Муаллифлик ҳуқуқига доир ишларнинг оммавий ахборот воситаларида ёритилиши ҳам кўнгилдагидек эмас. Кейинги вақтларда плагиат мавзусида бирон жўяли, таҳлилий материал эълон қилинганини эслай олмайман.

Турли сайт ва каналлар “Фалончи шоир фалончи хонандани судга берди” дея шов-

шув кўтариш билан овора. Ҳаваскорларча тайёрланган хабарларни ўқиган, эшитган замондошда ҳуқуқбузар эмас, қонуний ҳақ-ҳуқуқини талаб қилган шахс айбдор деган таассурот уйғонади. Ижтимоий тармоқдаги муҳокамаларда эса аксар одамлар мавзунини тушуниб-тушунмай озгига келганини ёзаётир.

Шундай узук-юпук хабарлар оқимида “Шоирлар шёъри қўшиқ бўлишига бутунлай қарши экан” қабилидаги бўлмағур гаплар болалади. Баъзилар ҳатто муаллифлик ҳуқуқи учун қурашаётганларни товламачига чиқармоқчи бўляпти.

Янада аламлиси, шунча қийинчилигу оворагарчиликлар билан иш якунлангандан кейин мутасаддилар гўё ҳаммасини ўзлари ҳал қилиб бергандек жар соляпти. Ахир айни шу ишлар бўйича кўнгиноқларимизга ҳам жавоб бермай, думини тутқазмай юрганлар ким эди?! Муаллиф адолат истаб овораяо сарсон юрганда қаерда эди ўзи бу “олийҳиммат” интеллектуал мулк ҳимоячилари?!

Плагиат ҳодисаси олий ўқув юртлари, илмий-тадқиқот муассасаларида ҳам урчимоқда.

Бир мисол. Андижон давлат университетида химёя қилинган магистрлик ишида PhD диссертациям материаллари, хусусан, матбуот ва интернетда эълон қилган мақолаларимдан саҳифа-саҳифа қўчириб олинбди.

Ушбу ҳолат юзасидан университет раҳбариятига мурожаат қилдик. Келинг, ҳозир тафсилотларни дастурхон этиб ўтирмайин. Аммо, очиги, олий таълим муассасаси раҳбариятининг масъулиятни ўзидан соқит қилишга урингани, педагог-ҳодимлар эса кўчирмакашлик ҳолатига “Шунга ҳам ота гўри қозихонами!” қабилида муносабатда бўлганидан музтар-мутаассир бўлдим.

Тасаввур қилингки, шу каби кўчирмакашлар кейинроқ докторлик диссертациясини ёқласа, илмий даражага эга бўлиб, соҳада жавлон урса! Ким билсин, яна қанча юма-лоқ-ёстиқ қилинган “илмий иш”лар бор экан?! Илму ижодга ёлғон, нопок йўллар билан қириб келаётган ёшларнинг келажаги ҳақида ёруғ сўз айтиш қийин...

Олий таълим масъуллари, илмий-тадқиқот институтлари мутасаддилари бу масалага алоҳида эътибор қаратмоғи даркор...

Кўчирмачиликка мактаб давриданоқ қатъий қарши туриш зарур. Илму ижод ўғриларига кескин чора қўрилмас экан, ахвол бундан-да ёмонлашаверади...

Бехзод ФАЗЛИДДИН,  
шоир

▼ Соғинч



# Муҳаммад Юсуф деган

## безавол шеърят бор...

Муҳаммад Юсуф покиза инсон эди. У одамларни ўйлатган, кулдирган, йиғлатган, топган-тутганини одамлар устидан сочган сахийлик тимсоли эди. Муҳаммад ҳаммани ўзига дўст деб биларди. Ҳеч кимни бегона санамасди.

Муҳаммад Юсуф тез оғизга тушди. Бирорта шоир унингдек тез ном чиқармаган, номдор бўлмаган.

Аслини олганда, асл шоирлар узоқ яшамайдилар. Аммо ортидан абадий яшайдиган мерос

қолдириб кетадилар. У мана шундай ўлмас мерос қолдирди. Муҳаммад мухлисларининг юрагини ўртаб кетди. Энди шоирнинг ўзи йўқ. Аммо Муҳаммад Юсуф деб аталган Шеърят бор.

Бу шеърят асло заво́л билмайди.

Саид АҲМАД,  
Ўзбекистон Қаҳрамони,  
халқ ёзувчиси.



## Иқроф

О, ота маконим.  
Онажон ўлкам,  
Ўзбекистон, жоним тўшай соянгга.  
Сендай меҳрибон йўқ,  
Сенингдек кўркам.  
Римни алишмасман бедапоянгга.

Бир гўша сув бўлса, бир гўша қирлар,  
Қанча юртни кўрдим, қанча тақдирлар.  
Қайда борсам суяб, бошни тик тут деб,  
Тоғларинг ортимдан эргашиб юрар.

Кўрдим сулувларнинг энг фарангаларин.  
Ё худбинман мен ё бир содда касман мен –  
Парижнинг энг гўзал ресторанларин,  
Битта тандирингга алишмасман мен.

На гапга кўнайин,  
На тил билайин,  
Кўздан уйқу қочди, дилдан ҳаловат —  
Уч кунда соғинсам нима қилайин,  
Чала қолар бўлди ҳамма савҳат.

Билдимки, баридан улугим ўзинг,

Билдимки, яқини шу тупроқ менга.  
Баҳорда Бахмалда туғилган кўзинг,  
Араб оҳусидан азизроқ менга.

Сен билан ўтган ҳар кун байрам-базм,  
Сенсиз бир он қолсам ваҳим келади.  
Сени билганларга қиламан таъзим,  
Сени билмасларга раҳим келади.

### ТУШУНМАЙСАН

Маъюс куним кўзим тушса,  
Куяр осмон, тушунмайсан.  
Мени само тушунгайдир,  
Сен, эй инсон, тушунмайсан.

Кўйиб кўксим ўтар бўлсам,  
Оқар бўлсам, кетар бўлсам,  
Мени дарё тушунгайдир,  
Сен, эй уммон, тушунмайсан.

Мен ҳам шайдо, мен ҳам мафтун,  
Мен ҳам ҳеч кими йўқ Маҳжун,  
Мени лайло тушунгайдир,  
Сен, эй жонон, тушунмайсан.

Менинг йўлим узун армон,  
Ўзим довои, ўзим карвон,  
Мени сахро тушунгайдир,  
Сен, эй сарбон, тушунмайсан.

Менинг борим эрур кўнелим,  
Менинг ёрим эрур кўнелим,  
Маъюс танҳо тушунгайдир,  
Сен, эй хандон, тушунмайсан...

Маъюс куним кўзим тушса,  
Куяр осмон, тушунмайсан.  
Мени Оллоҳ тушунгайдир,  
Сен, эй ҳоқон, тушунмайсан.

Кўнелим гул, кўзларим гулдир,  
Юзим гул, кўлларим гулдир.  
Мени сабо тушунгайдир,  
Сен, эй тўзон, тушунмайсан...

Ғуборимдир бўйи райҳон,  
Миноримдир тилим биёрон.  
Мени дунё тушунгайдир,  
Сен, эй нодон, тушунмайсан.

## Ўлан

Тўйларни ҳаммадан ҳам  
Бўй қизлар хуш кўрармиш.  
Битта қиз эрга тегса,  
Қирқтаси туш кўрармиш.

Тўйхонада куй тиниб,  
Тинганида оловлар.  
Қирқ сулувени йиғлатиб  
Кетар экан кувлар...

Сингилларим, йиғламанг,  
Йиғласангиз хафаман.  
Юртни кезиб, сизларга  
Ўзим кувё топаман.

Оқ тилаклар бор бўлса,  
Омон бўлса умидлар,  
Изингизга зор бўлар  
Муҳаммаддек йиғитлар!..

## Қора қумғон

Момом сенга олов ёққан,  
Қора қумғон, қора қумғон.  
Бобомни ҳам узинг боққан,  
Қора қумғон, қора қумғон.

Онам қошида тиз чўккан,  
Қора қумғон, қора қумғон.  
Отанинг кўллари теккан,  
Қора қумғон, қора қумғон.

Куним сенсиз ўтар, аммо,  
Қўлим қўкка етар, аммо,  
Қора қумғон, чойингдан бер,  
Қора қумғон, қора қумғон...

Улар паймонаси тўлағ,  
Удумлари унут бўлағ,  
Уйимда мунғайиб қолган,  
Қора қумғон, қора қумғон.

Келар даврон, кетар даврон,  
Ўзингдан узга йўқ армон.  
Ўзингдан ўзгаси ёлғон,  
Қора қумғон, қора қумғон.

Куним сенсиз ўтар, аммо,  
Қўлим қўкка етар, аммо,  
Қора қумғон, чойингдан бер,  
Қора қумғон, қора қумғон...

## Ҳайвонот боғи

Ҳайвонот боғида жайронни кўрдим,  
Тутқунликда дили вайронни кўрдим.

Кўрдим, қуруқ шохда сайрар тўтилар,  
Йиғламсираб товуш қайрар тўтилар.

Қанотдан айрилиб, қилар пардозлар,  
Осмоида энди учолмас гозлар.

Бургутларнинг боши эгилган ерга,  
Булбулларнинг ёши тўқилган ерга.

Қақликнинг тўши қон, тумшуқлари қон,  
Қумриларнинг маъюс кўзлари — достон...

Бу дунё аслида ҳайвонот боғи,  
Муштоқ — зорликка қон бошдин-оғи.

Бир-бир барин санаб нетарман, бас-да,  
Неки гўзал бўлса бари қафасда!

## Тушларимга кир

Қапалакдай келиб,  
Қошинга кўниб,  
Кўзингга термулиб умрим ўтсайди...  
Нима ҳам кўрибман мен йиғит бўлиб?  
Сочингани силашга қўлим етмайди.  
Пешонам шу экан, пешонанг шудир,  
Тушимга кир энди, тушларимга кир.

Товонинг ўпади ариқдаги сув,  
Кўйлагинг этагин ўпади майса.  
Мен-чи, бир гиёҳча бўлолмадим-ку,  
Эй, кўзлари жайрон, киприги найза!  
Пешонам шу экан, пешонанг шудир,  
Тушимга кир энди, тушларимга кир.

Кўчиб бораётир бу умр — карвон,  
Қулларнинг бўйида юрак кўнғирок.  
Мен сенга армону, сен менга армон,  
Кўнглимнинг тўрида тутар шамчирок.  
Пешонам шу экан, пешонанг шудир,  
Тушимга кир энди, тушларимга кир.

Қапалакдай келиб, қошинга кўниб,  
Кўзингга термулиб умрим ўтсайди.  
Қолдинму бағримда жонимдек бўлиб,  
Сочингани силашга қўлим етмайди.  
Пешонам шу экан, пешонанг шудир,  
Тушимга кир энди, тушларимга кир...

# Suratlarda yashirin sirlar



“Kimyogarlilar” madaniyat saroyida ikki kun davomida boʻlib oʻtgan festivalda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga ehtirom va barqaror rivojlanish gʻoyalari targʻib etgan asarlar mehmonlarning diqqat markazida boʻldi. Madaniyat markazining yashil maydoni viloyatimizning tuman va shaharlaridan kelgan rassomlar, hunarmandlar, fotosanʼat ustalari, sanʼatshunoslar va sanʼat ixlosmandlari bilan gavjum boʻldi.

orqali xalqimiz tarixi, madaniyati, urf-odatlarini aks etgan rasmlarni tomoshabinlar eʼtiboriga taqdim etish, yaratgan asarlaridan estetik zavq olishdir.

Festivalning ochilish marosimi tanqili rassomlar — Badiiy ijodkorlar uyushmasi aʼzolari Chori Bekmirov va Ahmadjon Oʻrinovlarning “Koʻngil bahori”, yosh ijodkorlarning esa “Yurtim koʻrki” nomli ijodiy asarlari koʻrgazmasi bilan boshlandi. Shuningdek, rang-tasvirchi ras-

almashish imkoniga ega boʻldilar.

— Bu festivalni nafaqat koʻrgazma, balki jonli ijod platformasi sifatida tashkil qildik, — deydi Oʻzbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi Toshkent viloyati boʻlimi raisi F.Nazarmatov. — Har bir asar oʻrtida insonning ichki dunyosi, kechinmalari, umidlari bor. Shuning uchun har bir ishtirokchi bilan muloqot qilish, uning ruhiy olamiga nazar tashlash muhim. Ishtirokchilar oʻtilgan mahorat darslaridan ham oʻzlariga foydali bilimlarni olishdi.



ham boʻldi. Ular yashil tabiat qoʻynida erkin ijod jarayonlarini bevosita tomosha qilishdi. Ayrim asarlar yonida oʻyga tolib, oʻz hissiyotlarini yosh rassomlar bilan baham koʻrishdi.

“Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” mavzusi doirasida oʻtkazilgan tasviriy va amaliy sanʼat festivali, tabiatni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot va insonning ekologik masʼuliyati haqidagi gʻoyalarni sanʼat orqali targʻib etadi. Ijodkorlar oʻz asarlari orqali tabiatga boʻlgan ehtiromni, ekologik muammolarni va ularga qarshi kurashish yoʻllarini jamiyatga yetkazishga harakat qilishdi. Festival bugungi kunning global muammolariga yanada yuksak maʼnaviy va ijodiy yondashuvlar bilan qarashga imkoniyat yaratdi.

Festival soʻngida gʻolib va sovrindorlarga faxriy yorliq va esdalik sovgʻalari topshirildi.

**Nozima RASULOVA,**  
“Toshkent haqiqati” muxbiri  
Jaloliddin ESNOV  
olgan suratlari



Koʻrgazmani oʻtkazishdan asosiy maqsad, ushbu sohada taʼlim olayotgan yoshlarning mahoratini kuzatish, ularning ijodiy ishlari

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

somlar, yogʻoch oʻymakor ustalari ishtirokida mahorat darslari boʻlib oʻtdi. Festival ishtirokchilari nafaqat oʻz asarlarini namoyish qilishdi, balki master-klasslar, ochiq muhokamalar va ijodiy uchrashuvlar orqali tajriba

— Bu mening festivaldagi ilk ishtirokim, — deydi yosh rassom Gulruh Abdunazarova. — Asarlarim orqali inson va tabiat oʻrtasidagi uzilgan koʻpriknı qayta tiklashga harakat qildim. Shuningdek, ustozlar bilan

oʻtgan jonli muloqot orqali ijodiy ruhlanish oldim. Hissiyotlarni qanday qilib ranglarda koʻrsata olishni chuqurroq oʻrgandim.

Tomoshabinlar orasida talabalar, sanʼat ixlosmandlari va yosh bolalar



TOSHKENT HAQIQATI  
ТАШКЕНТСКАЯ ПРАВДА

Muassis:

**TOSHKENT  
VILOYATI  
HOKIMLIGI**



“Toshkent haqiqati” va  
“Tashkentskaya pravda”  
gazetalari tahrir hayʼati:

**Zoyir MIRZAYEV**  
(tahrir hayʼati raisi)

**Abdusamad NOSIROV**

**Ummat MIRZAUQULOV**

**Hotamjon SAYDAHMEDOV**

**Gʻafurjon MUHAMEDOV**

**Sayyora FAYZIYEVA**

**Tohir ARIPOV**

**Mahmud TOIR**

**Azamir MIRZAYEV**

**Uskenboy ATAMOV**

**Abdulla XURSANOV**

**Shahboz NIZOMIDDINOV**

**Kumush EGAMBERDIYEVA**

**Olimjon BEGALIYEV**

**Behzod QOBULOV**

**Sergey MUTIN**

Bosh muharrir:

**Gʻayrat SHERALIYEV**



Qabulxona:

(55) 520-64-95

Bosh muharrir oʻrinbosari:

(55) 520-04-10

Maʼsul kotib:

(55) 520-05-10

Boʻlim muharrirlari:

(55) 520-06-20, (55) 520-04-20

Eʼlonlar va hisob-kitob boʻlimi:

(55) 520-21-20

e-mail: toshkenthqiqati@umail.uz

Maʼsul kotib:

**Alloma AZIZOVA**

Navbatchi:

**Toʻxtamurod HASANBOYEV**

Ekspeditor:

**Behruz NURBOBOYEV**

Bosishga topshirish vaqti – 21.00.

Bosishga topshirildi – 19.20.

Nashr koʻrsatkichi – 205.

Buyurtma G-435.

4 718 nusxada chop etildi.

Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida

bosildi. Qoʻgʻoz bichimi A–2.

**Bahosi kelishilgan narxda.**

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida

2011-yil 12-yanvarda

03-001 raqami bilan

roʻyxatga olingan.

Manzil:

111500, Nurafshon shahri,

Toshkent yoʻli koʻchasi, 90.

Toshkent shahridagi

ofisimiz: Bektemir tumani,

Ittifoq koʻchasi, 2.

**ISSN 2010-9318.**

Gazeta “Toshkent haqiqati”  
tahririyati kompyuter markazida  
terildi va Tohir Mahmudxoʻjayev  
tomonidan sahifalandi.

Haftaning

chorshanba va shanba

kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa

aksiyadorlik kompaniyasi

bosmaxonasida bosildi.

**Korxona manzili:**

**Toshkent shahri,**

**Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.**